

IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
74 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66E
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	

SOLIQ TO'LOVCHILARNING MAJBURIYATLARI BAJARILISHINI KONSEPTUAL ASOSLARI VA SHARTLARI ASOSLARI XUSUSIDA

Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich

Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat soliq siyosatining hozirgi zamon talablariga moslashuvchanligini ta'minlash sharoitida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslari va zarur shartlari tadqiq etilgan. Samarali soliq ma'muriyatchiligiga oid jahon tajribasi asosida soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajarish holati baholangan va uni takomillashtirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq munosabatlari, soliqlar tizimi, soliq majburiyatlari, soliq majburiyatlarining bajarilishi, soliq majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, soliq majburiyatlarining bajarilishi natijalarini baholash, soliq qarzi, soliqlarning yig'iluvchanligi.

Abstract: The article explores the conceptual foundations and necessary conditions for ensuring the fulfillment of taxpayers' obligations in the context of adapting state tax policy to modern requirements. Based on international experience in effective tax administration, the study assesses the current state of compliance with tax obligations and scientifically substantiates ways to improve it.

Keywords: tax relations, tax system, tax obligations, fulfillment of tax obligations, ensuring compliance with tax obligations, assessment of tax compliance outcomes, tax debt, tax collection efficiency.

Аннотация: В статье исследуются концептуальные основы и необходимые условия обеспечения выполнения налоговых обязательств налогоплательщиками в условиях адаптации государственной налоговой политики к современным требованиям. На основе международного опыта эффективного налогового администрирования дана оценка состояния выполнения налоговых обязательств и научно обоснованы пути его совершенствования.

Ключевые слова: налоговые отношения, налоговая система, налоговые обязательства, выполнение налоговых обязательств, обеспечение исполнения налоговых обязательств, оценка результатов выполнения налоговых обязательств, налоговая задолженность, собираемость налогов.

KIRISH

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida hozirgi globallashuv sharoitida soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish va soliq stavkalarini pasaytirish, soliqlarni to'lash hamda soliq hisobotlarini taqdim etishning elektron tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga, shuningdek, biznes yuritish uchun qulay investitsion iqlim va sog'lom ishbilarmonlik muhitini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimiz soliq tizimi murakkab rivojlanish va takomillashuv bosqichlarini bosib o'tdi. Bu borada amalga oshirilgan islohotlar izchil tarzda davom ettirilib kelinmoqda. Jumladan, istiqlolning dastlabki yillarida mamlakat soliq tizimi davlat budjeti taqchilligini kamaytirish va daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, o'sha davrda korxonalar foydasiga yuqori stavkalarda soliq solinishi belgilangan edi. Keyingi bosqichlarda esa soliq islohotlari korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, eksport faoliyatini kengaytirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga va tadbirkorlikni rag'batlantirishga yo'naltirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy asoslarini mustahkamlashda samarali vositalardan biri — bu soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiy etgan davlatlarda soliqqa tortish tizimining yuqori darajadagi aniqlik va barqarorlik bilan ishlashi soliq intizomi va fiskal samaradorlikning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida zamonaviy talablarga javob beruvchi soliq tizimi modernizatsiyasi va samarali soliq ma'muriyatchiligini shakllantirish yo'lida dastlabki bosqichlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishdagi islohotlarning iqtisodiy taraqqiyot uchun kuchli turtki beruvchi omilga aylanishi, mavjud soliq amaliyotini tahlil qilish hamda tizimli yondashuv asosida baholash zaruratini belgilaydi.

Bugungi kunda keng muhokamalarga sabab bo'layotgan soliq tizimi islohotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish va mazkur tizimni zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya va soliq huquqi sohasidagi tadqiqotchilar “soliq majburiyati” tushunchasi hamda uning “soliq burchi” tushunchasidan farqlanishini o‘rganib kelmoqda [1].

Huquqiy lug‘atda “soliq majburiyati” — “soliq qonunchiligi aktida belgilangan holatlar mavjud bo‘lganda, ma‘lum bir soliq (yig‘im)ni to‘lash majburiyati” deb ta‘riflanadi [2].

Ba‘zi xorijiy davlatlarda (Germaniya, Avstriya va boshqalar) soliq munosabatlari “soliq majburiyati” tushunchasiga asoslangan holda tartibga solinadi. Ushbu yondashuv qo‘shni mamlakatlarning (Belarus, Tojikiston, Moldova va boshqalar) qonun hujjatlarida ham mustahkamlangan.

Xususan, Belarus Respublikasining Soliq kodeksida “soliq majburiyati” tushunchasi alohida e‘tiborga olingan bo‘lib, 2-bo‘lim aynan shu masalaga bag‘ishlangan. Rossiya Soliq kodeksidan farqli ravishda, unda “soliq va yig‘imlarni to‘lash majburiyati” atamasi “soliq majburiyati” tushunchasi bilan almashtirilgan (36-modda): “soliq majburiyati — to‘lovchining (yoki boshqa majburiy shaxsning) soliq qonunchiligida belgilangan holatlar mavjud bo‘lganda, ma‘lum bir soliq, yig‘im (boj)ni to‘lash majburiyatidir”. Xuddi shu mazmunga ega qoidalar Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 44-moddasida ham aks ettirilgan bo‘lib, unda soliq majburiyatining yuzaga kelishi, o‘zgarishi va bekor qilinishi hamda uni bajarish tartibi va shartlari bayon qilingan.

Tojikiston Respublikasining Soliq kodeksida ham “soliq majburiyati” atamasiga alohida bob bag‘ishlangan. 7-bobda, xususan 78-moddada quyidagicha ta‘rif berilgan: “Soliq majburiyati — ushbu Kodeks yoki soliq qonunchiligining boshqa aktida belgilangan tartibda soliq to‘lovchining ma‘lum bir soliqni, hisoblangan jarimalar va foizlarni budjetga to‘lash majburiyatidir”.

Moldova Respublikasining Soliq kodeksida ham 5-bob “soliq majburiyati” deb nomlangan. 169–180-moddalarda soliq majburiyati bevosita ta‘riflanmagan bo‘lsa-da, uning yuzaga kelishi, o‘zgarishi va bekor qilinishi bilan bog‘liq xususiyatlar yoritilgan.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi o‘z qarorlarida soliq majburiyatini nafaqat soliqlarni, balki jarimalarini ham o‘z ichiga oluvchi majburiyat sifatida talqin qilgan (qarang: №195-O — 1999-yil 5-noyabr; №130-O — 2001-yil 4-iyun; №257-O — 2001-yil 6-dekabr). Shu bilan ushbu organ “soliq majburiyati” va “soliq to‘lash majburiyati” tushunchalari o‘rtasidagi farqni deyarli tenglashtirgan.

A.N. Azriliyan tahriri ostida nashr etilgan “Katta buxgalteriya lug‘ati”da soliq majburiyati iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida ta‘riflanadi. Unga ko‘ra, soliq to‘lovchi soliqlarni hisoblash va to‘lashga oid barcha talablarni bajarishi shart, davlat esa vakolatli organlar orqali bu majburiyatni bajarilishini talab qilish huquqiga ega [3].

“Tadbirkorlik atamaları lug‘ati”da esa soliq majburiyati yanada sodda tarzda — “soliq to‘lovchining soliq to‘lash majburiyati” sifatida izohlangan [4].

I.S. Polishuk esa mazkur tushunchani yanada kengroq talqin qiladi. Unga ko‘ra, soliq majburiyatiga nafaqat to‘lov bilan bog‘liq harakatlar, balki soliq organida ro‘yxatdan o‘tish, davlat organlari tomonidan soliq to‘lovchi haqidagi ma‘lumotlarni olish va boshqa tashkiliy harakatlar ham kiradi [5].

I.A. Mayburov “soliq” va “soliq majburiyati” tushunchalarini nazariy jihatdan aniqlashtirib, soliqning majburiy elementlarini — soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadigan va uning asosida soliqlarni hisoblash hamda to‘lashni belgilaydigan normalar majmui sifatida tavsiflaydi [6]. U soliq majburiyatining ikki tomonlama xususiyatini alohida ta‘kidlaydi: “Soliq majburiyati — bu soliq to‘lovchining soliqni to‘g‘ri hisoblab, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lashi uchun barcha zarur huquqiy talablarga amal qilishi shart bo‘lgan huquqiy munosabatdir. Davlat esa bu majburiyatni bajartirish huquqiga ega” [7].

Ushbu mavzuning nisbatan yangiligi va chuqur o‘rganilmaganligi uni yosh tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun dolzarb va qiziqarli yo‘nalishga aylantirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, tasniflash, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullaridan foydalaniladi. Xususan, tarkibiy va tizimli tahlil asosida soliqqa tortish amaliyotining asosiy ko‘rsatkichlari tasniflanadi, boshqa omillarni ilmiy abstraksiyalash orqali esa soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajarilishini ta‘minlashga doir konseptual asoslar va shartlar o‘rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Birinci umumiy soliq nazariyalari — bu soliqqa tortishning qaytariladigan xususiyatini va ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining shartnomaviy tabiatini tan olish asosida yagona uslubiy platformada birlashtirilgan birja (almashinuv) nazariyalaridir. Ushbu almashinuvning mohiyatini va davlat xizmatlari narxining asoslanishini turlicha yondashuvlarda izohlashga urinishlar mavjud. Jumladan, tarixiy manbalarda quyidagi nazariyalar qayd etilgan: ekvivalent almashinuv nazariyasi (O‘rta asrlar), soliqlarning atomistik nazariyasi (Sh. Monteske), fiskal

shartnoma nazariyasi (T. Gobbs, Volter), soliqni zavq shaklida izohlovchi nazariya (J.S. de Sismondi), hamda soliqni sug'urta mukofoti sifatida talqin qiluvchi yondashuv (A. Ter, Dj. Mak-Kullox).

Keyinchalik, soliqlarning klassik nazariyasi vakillari — V. Petti, A. Smit, D. Rikardo — soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdilar: adolatlilik, aniqlik, tejamkorlik va qulaylik. O'rta asrlar amaliy g'oyalari asoslangan "qurbonlik sifatida soliq" nazariyasi esa D.S. Mill, K.T. Eeberg, S.Yu. Vitte, I.I. Yanjul kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi.

Neoklassik yo'nalish doirasida parallel ravishda ishlab chiqilgan "jamoaviy ehtiyojlarni qondirish" nazariyasi bir nechta ilmiy maktablar — nemis (L. Shteyn), italyan (F. Nitti), rus (A.A. Sokolov) izlanishlari orqali shakllandi.

Keynschilik maktabi nazariy qarashlariga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotdagi "o'rnatilgan stabilizator" funksiyasini bajaradi va ular iqtisodiy sikllarni muvozanatlashda faol vosita sifatida qo'llanilishi zarur.

Keynschilikka muqobil bo'lgan yangi liberal yo'nalish esa davlatning faol soliq siyosatiga qarshi chiqadi. Bu maktab vakillari — F. Xayek, L. Erxard, M. Fridman — yuqori soliq yukini va davlat aralashuvini tanqid qilgan holda, erkin bozor mexanizmlari orqali fiskal siyosatni cheklash g'oyasini ilgari surishgan.

20-asr oxiridan boshlab, yangi liberal maktab doirasida amerikalik iqtisodchi A. Laffer tomonidan taqdim etilgan "ta'minot iqtisodiyoti nazariyasi" alohida ahamiyat kasb etdi. Bu nazariya doirasida soliq stavkalari va davlat budjetiga tushadigan soliqlar hajmi o'rtasidagi nisbiy bog'liqlik o'rganilgan. A. Laffer soliq stavkasining oshirilishi har doim ham soliq tushumining ko'payishiga olib kelmasligini isbotlagan. U soliq stavkasi ma'lum bir chegaradan oshgach, soliq tushumlari kamayishni boshlashini hisoblab chiqdi. Unga ko'ra, davlat budjetiga bir xil miqdordagi daromad ham yuqori, ham past stavkalar asosida olinishi mumkin. Laffer egri chizig'i asosida soliq stavkalarining pasaytirilishi iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi va vaqtincha soliq tushumlarining kamayishi oxir-oqibat budjet daromadlari tiklanishiga olib keladi. Aksincha, stavkalarining haddan tashqari oshirilishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va soliq yig'iluvchanligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Hukumat tomonidan byudjetning daromad qismini soliqlar orqali oshirishga intilish, soliqlarning fiskal funksiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun munosib turmush darajasi va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash ehtiyoji ham tabiiy jarayon sanaladi. Soliq to'lovchidan muayyan chegaradan ortiq daromadni olib qo'yish, tadbirkorlik tashabbusining pasayishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'batning susayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq to'lashdan bo'yin tovlash yo'llarini izlash, moliyaviy resurslarni soya iqtisodiyotiga yo'naltirishga intiluvchi guruhlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Hozirgi paytda samarali soliq stavkasining umumiy qabul qilingan aniq chegarasi mavjud emas. Biroq Laffer konsepsiyasiga asoslanib shuni aytish mumkinki, agar soliq to'lovchining foydasidan 35–40 foizdan ortiq mablag' olib qo'yilsa, bu kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan investitsiyalarni samarasiz qiladi. Bunday holat "institutsonal tuzoq" nazariyasi doirasida "soliq tuzog'i" sifatida tavsiflanadi [8].

Laffer nazariyasi keng tarqalgan bo'lsa-da, bir qator nufuzli iqtisodchilar, jumladan, Dj. Stiglits, ushbu nazariyaga tanqidiy yondashib kelmoqda. Ularning fikricha, prezident R. Reygan davrida bu nazariyaning AQSH iqtisodiyotiga amaliy qo'llanilishi katta byudjet taqchilligiga sabab bo'lgan [9].

Neoklassik sintez konsepsiyasiga ko'ra (P. Samuelson, Dj. Xiks), soliqlar talab va taklifning tuzilishini buzadi. Zamonaviy neo-institutsonal yondashuvlardan faqat jamoatchilik tanlovi nazariyasi (Dj. Byukenen, K. Errou) soliqqa tortish masalalarini bevosita tahlil qiladi.

1990-yillarning oxirida olib borilgan ichki iqtisodiy siyosat ta'minot iqtisodiyoti nazariyasi tavsiyalariga tayanib, soliq stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirishga va soliqlar hamda yig'imlar sonini kamaytirishga qaratildi. Iqtisodiyotning bozorga asoslangan modeliga o'tishi bilan soliqlar uni tartibga soluvchi muhim vositaga aylana boshladi.

Bozorga yo'naltirilgan soliq mexanizmini ishlab chiqish, soliq munosabatlarining tomonlari — davlat va soliq to'lovchilar — o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilab beruvchi yangi soliq tizimini yaratish, bu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash yo'llarini aniqlash hamda ularni bajarmaganlik uchun mas'uliyat choralari belgilash zarurdir.

Mualliflar talqinidagi farqlarga qaramasdan, soliq majburiyatining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari shubhasizdir:

Bu shoshilinch majburiyat hisoblanadi, chunki soliq to'lovchilar soliq organlari tomonidan belgilangan vazifalarni qonun hujjatlarida ko'rsatilgan muddatlarda bajarishi shart;

To'lov muddati har bir soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar va soliq agentlari uchun alohida belgilanadi;

Soliq organlari soliq to'lovlarini undirishga qaratilgan harakatlarni qonuniy ravishda belgilangan muddatlarda amalga oshirishi shart;

Haddan tashqari olingan soliq to'lovlari summasini qaytarish va qoplash, shuningdek, jarima va penya to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar ham qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda bajarilishi lozim.



Fuqarolik javobgarligidan farqli o'laroq, har qanday soliq majburiyati pul xarakteriga ega. Soliq majburiyatini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad — soliq kreditorining bir turi sifatida faoliyat yurituvchi davlat foydasiga soliq to'lovini amalga oshirishdir. Xususan, quyidagilar soliq majburiyatining tarkibiy qismlariga kiradi: qarzdorlikka asoslangan majburiyatlarda soliq miqdorini undirish; ortiqcha to'langan (yoki yig'ilgan) soliq summalarini qaytarish bilan bog'liq majburiyatlar; jarimalarni to'lash majburiyatida — jarima miqdorini undirish; ortiqcha to'lovlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi uchun foiz to'lovlari undirish majburiyatlari. Soliq majburiyatining asosiy belgisiga ko'ra, soliq to'lovchining (qarzdorning) xususiy mulki davlat (kreditor) foydasiga soliqlar, jarimalar, penya shaklida o'tkaziladi, ortiqcha olingan mablag'lar esa unga qaytariladi [10].

Shu bilan birga, soliq majburiyati doirasida ko'plab mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan, ammo huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan majburiyatlar ham mavjud. Masalan, soliq tekshiruvlari uchun hujjatlar va tushuntirishlar taqdim etish, protsessual huquqiy munosabatlarda qatnashish shular jumlasidandir. Bunday majburiyatlar soliq majburiyatining maqsadga muvofiq amalga oshirilishi uchun zarur hisoblanadi.

Agar soliq majburiyati odatda ixtiyoriy ravishda bajarilsa (ya'ni davlatning mulkiy huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida), u har doim majburiy ijro choralari nazarda tutadi. Bunday choralarga quyidagilar kiradi: belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni undirish orqali davlatning buzilgan huquqlarini tiklash; ortiqcha to'lovlarni o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun foizlarni undirish; soliq organlarining ortiqcha olingan summalarini qaytarish majburiyatini ta'minlash.

Soliq majburiyatining ijrosiga doir majburiy choralar — O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va "Soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik mexanizmlaridir. Bunday choralar odatda soliq majburiyati doirasidan tashqarida yuzaga keladigan himoya huquqiy munosabatlar asosida, ya'ni soliq qonunchiligi talablarini buzgan soliq to'lovchi yoki soliq agentiga nisbatan davlatning majburlov choralari qo'llash shaklida amalga oshiriladi. Ushbu majburiy chora-tadbirlar soliq summalarini, jarimalar va penya bo'yicha qarzdorlikni undirish majburiyatini bajarish, yoki bank yoki sud ijrochilari tomonidan tegishli qarorlarni ijro etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa davlatning soliq to'lovlari qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda undirish huquqini tiklashga qaratilgan huquqiy munosabatlarni shakllantiradi.

Soliq majburiyati moliyaviy-huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- u davlatning moliyaviy faoliyati doirasida yuzaga keladi;
- u ommaviy huquqiy munosabatlar doirasida shakllanadi;
- faqat huquqiy shaklda mavjud bo'ladi;
- bu — iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan huquqiy munosabatdir [11].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, amaldagi ichki soliq qonunchiligida soliq majburiyatining paydo bo'lishi va bekor qilinishi uchun aniq, izchil huquqiy mezonlar ishlab chiqilmagan. Bu esa, soliq majburiyatining buxgalteriya (moliyaviy) va soliq hisobini, soliq nazoratini, shu jumladan korporativ o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish va yuridik aniqlikni ta'minlashda noqulaylik tug'diradi. Shu bilan birga, "soliq majburiyati" va "soliq burchi" tushunchalari o'rtasidagi aniqlik va ularning o'zaro bog'liqligini aniq belgilash dolzarb hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval: «Soliq majburiyati» va «soliq burchi» ta'riflari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qiyosiy tahlil qilish¹ [12]

Mezon	Soliq majburiyati	Soliq burchi
Fuqarolik xuquqidagi talqin	Xuquqiy munosabat	Zarur ahloq o'lchovi
Me'yoriy talqin	Mavjud emas	Mavjud emas
Amal qilish formati	Qonun bilan belgilanmagan	Soliq qonunchiligida belgilangan asoslar mavjud bo'lsa, u paydo bo'ladi, o'zgaradi va to'xtaydi
Yuzaga kelish shartlari	Elementlarning mavjudligi: soliq to'lovchi, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq davri, soliq stavkasi, soliqni hisoblash tartibi, soliq imtiyozlari, soliq to'lash tartibi va muddati	-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normasi, -O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining talablari, - soliq to'lovchiga nisbatan qonuniy ahamiyatga yega bo'lgan faktlarning paydo bo'lishi yoki uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan holatlar soliq majburiyati


1 Учетные и налоговые инструменты совершенствования договорных обязательств организации: Монография / Н.Т. Лабинцев, Л.Н. Кузнецова, Е.В. Поролло, Е.С. Цепилова; под ред. Н.Т. Лабинцева. – Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2011. – С. 42 асосида муаллиф ишланмаси

Yuzaga kelish jabhasi (holati)	Soliq solinadigan obyektning mavjudligi va soliq bazasi hisoblanadigan muddat sifatida soliq davrining tugashi	Soliqni haqiqiy to'lash uchun qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan «ekstremal» sananing boshlanishi
Tomonlarning o'zaro hamkorligi	Huquqiy munosabatlar sifatida bu ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirning bir shakli (soliq ma'muriyatchiliklari bilan to'lov, qaytarish, qoplash, nazorat qilish masalalari bo'yicha o'zaro ta'sir o'tkazish zarurati tufayli, uchinchi shaxslar - soliq agentlari, banklar va boshqalarni ijro uchun jalb qilish).	Burchning bir tomonlama tabiati (soliq to'lovchi soliqni to'lashi shart, ammo davlat unga o'z harakatlari uchun ekvivalent bermaydi -bepul soliq to'lovlari prinsipi)
Baholash	Pul shaklida	Pulsiz shaklda
Ijro etish	Qonuniy belgilangan muddatlarga rioya qilish davlat ijro choralari bilan qo'llab-quvvatlanadi	Noma'lum, shaxs soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lgan paytdan boshlab

Yuqoridagi tahlil soliq burchi — soliq majburiyatining mohiyati va uning ajralmas, xos natijasi ekanligi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

Soliq majburiyatini o'rganishga nazariy va empirik yondashuvlar ushbu tushunchaga quyidagi mualliflik ta'rifini berishga asos yaratadi: soliq majburiyati — bu davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning aniq sohasida yuzaga keladigan tizimli huquqiy hodisa bo'lib, u ko'p yo'nalishli xarakterga ega. Ya'ni, soliq majburiyatlari soliq to'lovchilar yoki soliq agentlari va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarga vositachilik qiladi va ayni paytda davlat hamda soliq to'lovchi manfaatlarining murosaviy uyg'unligi negizida shakllanadi. Soliq majburiyati har doim davlat tomonidan qonuniy majburlash choralari bilan mavjudligi bilan kafolatlanadi.

Shu bilan birga, har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt, o'zining byudjet oldidagi soliq majburiyatlarini qonunda belgilangan tartibda maksimal darajada optimallashtirish huquqiga egadir. Buning uchun korxona xo'jalik faoliyatini yuritishda va moliyaviy operatsiyalarni hisobga olishda samarali yondashuvlar, mexanizmlar va qonuniy imkoniyatlardan foydalanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm: Soliq majburiyatining shakllanish modeli²[1]

2 Василенко, А. А. Налоговый учет и аудит: состояние и развитие [Текст]: монография / Е.С. Цепилова, Н.А. Нестеренко, А.А. Василенко, И.А. Кислая; под ред. Н.Т. Лабынцева. - Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2010. – 263 с. асосида муаллиф



1-rasmning e'tiborga molik jihati shundaki, amaldagi qonunchilik doirasida korxonaning soliq burchi obyektiv tarzda mavjud bo'lsa-da, bu holat hali soliq majburiyatining ko'lami va uning ijrosini ta'minlash imkoniyatlarini baholash uchun yetarli asos bo'la olmaydi.

Shunga o'xshash yondashuvni soliq majburiyatlarini aniqlashga oid jahon amaliyotini tahlil qilishda ham kuzatish mumkin³[14].

Soliq majburiyatlari ehtimollik–vaqt mezoniga ko'ra quyidagicha tasniflanishi mumkin (tekshiruv ehtimoli ortish tartibida):

- bashorat qilingan – bilvosita taxminlar asosida hisoblangan ehtimoliy majburiyatlar;
- potensial – yaqin kelajakda yuzaga kelishi kutilayotgan, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'xshashlik asosida hisoblangan;
- rejalashtirilgan – moliyaviy rejalar, soliq budjeti yoki shunga o'xshash hujjatlarda ko'rsatilgan;
- haqiqiy – faqat hisobot (soliq) davri tugaganidan so'ng aniq bo'ladi, yakuniy qiymat esa korporativ soliq nazorati muolajalaridan keyin aniqlashtiriladi.

Shu asosda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish doirasida quyidagilarni aniqlash va bashorat qilish zarur deb hisoblanadi:

- soliq to'lovchining soliq to'lash majburiyatini yuzaga keltiruvchi sabablar;
 - soliq majburiyatining tarkibiy elementlari, ular izchil qo'llanilganda majburiyat miqdori va bajarilish shartlarini belgilaydi;
 - soliq majburiyatlarini bajarishga doir real harakatlar;
- amalg oshirilgan choralarni baholash va ularning natijalarini tahlil qilish.

Faqatgina ushbu elementlarning birgaligi orqali soliq yig'imida aniqlik tamoyili ta'minlanadi. Soliq to'lovchi tomonidan soliq majburiyatini to'liq bajarish quyidagi shartlar ta'minlangandagina mumkin bo'ladi:

- soliq majburiyatining yuzaga kelishini belgilovchi barcha zarur elementlarning mavjudligi;
- ayniqsa daromad solig'i, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i yoki xorijiy mamlakatlardagi korporativ soliqlarni to'lashda iqtisodiy asoslarning mavjudligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbol-lari hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasining soliq sohasiga oid vazifalari doirasida soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash bo'yicha quyidagi tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida 2020-yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliq qonunchiligini maksimal darajada soddalashtirish, mavjud qara-ma-qarshilik va tushunmovchiliklarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni maqsad qilgan. Shuningdek, soliq nazoratining shakllari va mexanizmlarini mod-ernizatsiya qilish, soliqqa tortish obyektlari va to'lovchilarni to'liq hisobga olishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliqlarni to'lamaslik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmaslik kabi huquqbuzarliklar va soliqqa oid jinoyatlar soliq munosabatlarining huquqiy doira bilan chambarchas bog'lan-ganligini ko'rsatadi.

Soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishi darajasi davlat, iqtisodiyot tarmog'i va hududiy fiskal barqa-rorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, soliq majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslarini chuqur o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Yangi O'zbekiston sharoitida soliq tizimi modernizatsiyasi hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasidagi soliq islohotlari soliq to'lovchilarning majburiyatlarni bajarishga bo'lgan manfaatdorligini oshirish orqali davlatning fiskal barqarorligini kuchaytiradi. Ularning iqtisodiy o'sishdagi faol ishtiroki rag'bat-lantiriladi. Davlat tomonidan "soliq to'lashning ixtiyoriyligi" tamoyilining ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, soliq to'lovchilar faoliyatini qonuniy va qulay sharoitda olib borishga imkon yaratish — O'zbekistonda samarali soliq siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Винницкий Д.В. Финансовое право Российской Федерации: учебник / под ред. М.В. Карасевой. – 5-е изд. – М.: Юрист, 2021. – 592 с.
2. Юридический словарь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://dic.academic.ru/dic.nsf/lower/16303> (дата обращения: 23.10.2024).
3. Большой бухгалтерский словарь / под ред. А.Н. Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 1999.

ишланмаси.

- 3 Экономика налоговой политики. Пер. с англ.-5-изд. / Под ред. М. П. Девере. – М.: Информационно-издательский дом «Филинь», 2021.- С.21.



4. Словарь бизнес-терминов Академик.ру [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://dic.academic.ru/dic.nsf/business/8906> (дата обращения: 23.12.2024).
5. Полищук И.С. Понятие и признаки налогового обязательства [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://juristmoscw.ru/nalogovye-spory/stat_nal-sp/1540/ (дата обращения: 27.12.2024).
6. Майбуров И.А., Соколовская А.М. Теория налогообложения. Продвинутый курс: учебник для магистрантов. – 3-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2023. – С. 118.
7. Жук А.А. Асимметричность институциональной мотивации экономических субъектов // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2010. – № 6. – С. 36.
8. Стиглиц Дж. Ревущие девяностые. Семени развала. – М.: Современная экономика и право, 2005. – С. 79.
9. Полищук И.С. Налоговое обязательство в Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.14. – Омск, 2008. – С. 21.
10. Полищук И.С. Понятие и признаки налогового обязательства [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://juristmoscw.ru/nalogovye-spory/stat_nal-sp/1540/ (дата обращения: 27.12.2024).
11. Лабынцев Н.Т., Кузнецова Л.Н., Поролло Е.В., Цепилова Е.С. Учетные и налоговые инструменты совершенствования договорных обязательств организации: монография / под ред. Н.Т. Лабынцева. – Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2011. – С. 42. (асосида муаллиф ишланмаси)
12. Цепилова Е.С., Нестеренко Н.А., Василенко А.А., Кислая И.А. Налоговый учет и аудит: состояние и развитие: монография / под ред. Н.Т. Лабынцева. – Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2010. – 263 с. (асосида муаллиф ишланмаси)
13. Экономика налоговой политики / пер. с англ.; под ред. М.П. Девере. – 5-е изд. – М.: Информационно-издательский дом «Филинъ», 2021. – С. 21.
14. Djamalov Kh. N. Three-Dimensional System for Estimating Efficiency and Agreement of Entrepreneurial Activity Priorities // NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581–4230, Volume 7, Issue 6, June 2021, p. 365–370.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100